

Axborotlarni qabul qilish va qayta ishlash

Odam har qanday masalani yechishni axborot qabul qilishdan boshlaydi. Keyin uni qayta ishlaydi va xulosa chiqaradi.



Ko'chani kesib o'tish bilan bog'liq masalani miya qanday hal qiladi?

Axborot qabul qiladi

Ko'z svetoforning **qizil** yoki **yashil** chirog'i yonganligini ko'radi va bu axborotni miyaga uzatadi.

Axborotni qayta ishlaydi

Miya qabul qilingan signalni xotirada saqlangan axborot bilan taqqoslaydi: **qizil** chiroq – xavfli, kutib turish kerak; **yashil** chiroq – yurish mumkin.

Xulosa chiqaradi

Signalga qarab miya oyoqlarga kutib turish yoki yurish haqida buyruq beradi.



Biz qabul qilingan har qanday axborotni o'ylab ko'ramiz va qayta ishlaymiz, uni olgan bilimlarimiz bilan solishtiramiz. Xulosa axborotni qayta ishlash natijasidir.



Qabul qilinayotgan axborotlar:

Chovgumdan hushtak va shovqin bilan bug' chiqyapti.

Mavjud bilimlar:

Suv qaynayotgan vaqtda bug' paydo bo'ladi.

Xulosa:

Chovgumdagi suv qaynadi, endi choy damlash mumkin.



Qabul qilinayotgan axborotlar:

Ertalabdan qor yog'a boshladi.

Mavjud bilimlar:

Qor, odatda, harorat past bo'lganda yog'adi.

Xulosa:

Bugun tashqari sovuq, shuning uchun issiqroq kiyingan ma'qul.



1. Quyidagi kuzatishlardan qanday xulosaga kelish mumkin?

- Peshtaxtada bir qadoq qizil (pishib yetilgan) va bir qadoq och qizil (pishib yetilmagan) qulupnay bor.
- Tanaffus tugagach, koridorda qo'ng'iroq chalindi.
- Sutning hidi yoqimsiz.
- Qor to'pi uslab ko'rilganda, juda sovuqdek tuyuladi.



Insonning miyasi doimiy ravishda axborot qabul qiladi va uni qayta ishlaydi, xulosalar chiqaradi.

Masalalarni yechish va matnlarni yaxshiroq eslab qolish uchun miyani boshqotirma va krossvordlar yechish, she'r va hikoyalar yozish kabi mashqlar bilan ko'proq shug'ullantirish kerak.



2. Biror so'z o'ylang va bu so'zdagi har bir harfning yarmini chizing. Partadoshingiz bu so'zni topa oladimi?



3. Savollarga javob bering.

- Miya atrof-olam haqidagi axborotlarni qanday qabul qiladi? Keyin u qabul qilingan axborotlar ustida qanday ishlarni bajaradi?
- Inson hayotida axborotning qayta ishlanishi qanday ahamiyatga ega?

